



## TARIXIY SHAHAR UYLARINI UY MEHMONXONASIGA AYLANTIRISHNI HUDUD BILAN KOMPOZITSION UYG'UNLASHUVI.

*Abdunabiyeva Nigina S*  
*201 –BI va Arx guruhi magistranti*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda tadbirkorlikka katta e'tibor berilmoqda, shu jumladan yosh tadbirkor oilalarga kreditlar ajratiliniyapti. Yildan yilga mehmonxonalariga talab ortib boryotganini etiborga olgan holda uy mehmonxonalarini kopaytirish. Ushbu maqolada Samarqandning tarixiy shahar qismidagi uy mehmonxonalarini arxitekturasi rivojlantirish.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, mehmonxona, ma'daniyat, arxitektura, turist, obida, kashta, ayvon, so'ri, tok, resurs, texnologiya

Samarqand ro'yi zamin sayqali, buyuk mutaffakkirlar istiqomat qilgan shahar, dunyo sivilizatsiyasi o'chogi' bo'lgan o'lka. Samarqand o'zining 3 ming yillik tarixni o'z ichiga olgan qadimiy maskandir. Samarqand tarixiga nazar tashlasak hozirda muzeyga aylantirilgan Afrasiyob maydoni XIII asrgacha gavjum, aholi istiqomat qiluvchi maskan bo'lgan. Mug'ullar bosqinidan so'ng Afrasiyob maydoni xarobaga aylangan. Qadimda Samarqand"Maroqand"da ibodatxonalar, otashgohlar, masjidlar turar joy binalariga o'z ta'sirini o'tqazgan. Islom dini kirib kelishi, temuriylar hukumronligi, xonliklar davri, chor Rossiya bularning hammasi arxitekturada o'z ta'sirini qoldirishgan.

O'rta Osiyo me'morchilik inshootlaridan biri bu turar joy uylari. Insonlarning yillar davomida rivojlanib kelishining namunasini turarjoylarda ko'rish mumkin. O'rta Osiyoda iqlim, sharoitlariga hovli katta ahamiyatga ega. Yashash uchun mo'ljallangan imoratlar uy emas hovli deb aytilishi bejizga emas.

Turar joy uylarining qismlarga bo'lganda, tashqari va ichkari qismlarga ega aholi tilida "darun", "berun" deb aytiladi. Hovlining tashqari qismida mehmonxona, omborxonalar, otxona bo'lgan va mehmonlar shu berun qismida qabul qilingan bundan tashqari, nonvoylik, kulolchilik, hunarmandchilikning ko'plab turi bilan shug'ullanishgan. Hovli ko'cha changidan holi joy, ayvonning salqin soyasi, tokzorning yashilligi, tozalik va qulaylik, nafis fazoviy kombinatsiya o'ziga jalb qiladi. Hovlining darun qismida oila hayot kechirishiga mo'ljallangan. Ichkari hovlida omborxonalar, oshxonalar, turarjoy xonalari va boshqa xonalar qurilgan. Hovlilarning maydoni katta turarjoy egalari bog' qilib ekin ekkan. Xonalarga dahliz, terassalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Turar-joylar murakkabroq shaklga ega boshqa binolardan ajralib turadi. O'ziga yarasha qismlardan bo'linganligi sabab hovli bir butun kompozitsiyani tashkil qiladi. Turar joyning tashqi



ko'rinishi turli xil ijtimoiy, tarixiy, etnik, tabiiy va iqlimiy omillar bilan cahnbarchas bog'liq.

Turarjoy uylarini devorlar bilan o'rab olish sabablari feodal tizimi sharoitlaridan kelib chiqqan. Masalan, ba'zi xollarda fukarolarning o'z boyliklarini hukumat kishilaridan yashirishga shaharning yomon sanitar holati, yozning jazirama issig'i hovlini ko'chadan izolyatsiya qilish kerakligiga olib kelgan, bu bilan kerakli mikroiklimni yaratish urinishlari, kechki paytda aholi xavfsizligining ta'minlanmaganligi, va tozalikni ta'minlashga erishilgan va boshqa imkoniyatlar paydo bo'lgan.

Aholining boy qatlami turarjoylardagi hovlilar ikki qismga "darun", "berun" qismga bo'lingan. Darun hovliga faqat berun hovlidan, binodagi tor yo'lakdan o'tish mumkin. Darun, berunga bo'linish nafaqad mizning mamlakatda shu bilan birga qadimda Assiriya, sosoniylar saroyida ham bo'lgan va Yunoniston turarjoy uylarida shunday usuldan foydalanishgan. Aholining o'rta qatlamlarida, turarjoy uylarida darun,berun ananasini chetlab o'tgan, sababi mehnat hunarmandchilik qishloqda dala ishlari bilan band bo'lishgan. O'rta qatlam shahar hovlilarning zich joylashganligi sabab hovlining berun qismi darvoza xona ustida mehmonxona sifatida qilingan yoki darvoza xonadan kirishda bitta xonani ajratish bilan berun hovli vazifasini qisman bajargan. Qishloq turarjoylarida ko'pincha bo'linmagan tashqaridan mehmon kelganda, ayollar boshqa hovliga qo'shnilarinikiga vaqtinchalik borishgan.

Turar-joyni rejalashtirish, arxitektura shakllariga to'xtalsak, turarjoyda istiqomat qiladigan uy egasining ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi shu kabi prinsiplar ta'sir ko'rsatgan. Agar oddiy aholi bo'lsa uning hovlisi kichikroq xonalar soni ham kam bo'lgan. Boy aholi xonadonlari maydoni katta,xonalar soni ko'p,tashqi hovliga qo'shimcha xonalar qurilgan bular: ustaxona, omborxona, savdo xonalari bo'lgan. Agar oddiy uykarda oddiy ustunlar ishlatishgan, boy aholi uylarida o'yilgan ustunlar qo'yilgan. Boyliklari oshishi bu xonalar hamda bezakli xonalar soni oshgan. Uy egalarining xoxish istagidan kelib chiqqan holda yashash xonalarini yoki mehmonxonalarini bezatishgan.Oddiy aholi uy bezaklari faqat gips, badavlat uy devorlari o'yilgan alebastr bezaklari va mayda teshiklari bo'lgan katakchalar bilan bezatilgan. Uylar ko'rinishidan, egasining ijtimoiy va mulkiy holati ko'rsatish. Mehmonlar, amaldorlar uchun ziyofat zalining kattaligi va bezaklarining hashamati bilan o'z boyliklarini ko'esatishgan.Bunday bezatish ishlari har bir shahar o'zicha yondashgan masalan, Marg'ilonda mehmonxona turarjoydan oddiyroq, Qarshida mehmonxona hashamatli bezatilgan.

Buxoro. Buxoro turar-joylari shimolga qaragan yozgi xonalar va janubga yoki g'arbga qaragan qishki xonalarni aniq ajratish bilan tavsiflanadi. Xuddi shu bo'linish tashqi sudda qabul qilinadi. Egasining boyligiga qarab, bir qator xonalar qo'shiladi, ular yo'nalishi bo'yicha farqlanadi - g'arbiy yoki sharqiy. Eng





tantanalisi baland yozgi xona bo'lib, mehmonxonning ikki balandlikdagi makonining uchlarida old tomondan yuqorida joylashgan bir yoki hatto ikkita mezzanina bilan aloqa qiladi. Ushbu mezzaninalar - shaxnishin, nazariy jihatdan, mehmonlar uchun sharaflı joy, garchi kundalik hayotda ular ko'pincha prozaik funktsiyani bajaradilar. Shahnishin Buxoro uyining o'ziga xos xususiyati bo'lib, boshqa turdagi o'zbek uylarida kam uchraydi. Buxoro uyilari uchun ko'p ustunli ayvon, ko'pincha burchak ostida joylashtirilgan. Oddiy aholi uylarida ko'p hollarda ayvonlar qurilmagan. Buxoro hovlilarida eng baland joy bu yozgi xona bo'lgan

Xiva turar-joylari o'ziga xos, fazoviy shaklga ega, ko'pincha fasad qismi yog'och o'ymakorligidan foydalanilgan. Xiva uyining loyihaviy yechimlari bir-biridan farqli joylari ko'p. Xiva uyining kompozitsion asosini bir-biriga qarama-qarshi ayvonlari bo'lgan to'rtburchaklar hovli tashkil etadi: shimolga qaragan baland ulu-ayvon, uning orqasida yozgi xona, omborxon va uning yonida boshqa turar-joy binolari joylashgan. Ichan-qal'a uchastkalari zich joylashgani sabab hovlilar ochiq joyi qisqaradi va butunlay yo'q bo'ladi. Turar joylar devorlari ganch bilan silliq qilib shuvalangan. Eshik va ustunlar o'ymakorligi o'ziga xosligi, panjaralarning sodda, nafis naqshlari Xiva turarjoylari boshqa joylardan ajralib turadi. O'yilgan to'sinli ingichka ustunlar bu joyning eng sara bezaklaridan.

Samarqand mahalliy an'analar 18-asrda shaharning vayron bo'lishi bilan to'xtatildi va undan keyin aholi turli shaharlardan olib kelish natijasida, bu erda turar joy qiyofasi yaxlitlikka ega emas. Samarqand uyining me'morchiligida bir yoki ikki xona va tor kirish "dahliz" kirish joyidan foydalangan holda qurilishi. Ayvan ko'pincha binoga burchak qismida yoki xonaning oxiriga ulangan. Xonaning devori bir qatorli sinch yordamida qurilgan. Agar Farg'ona va Toshkent uylari bilan taqqoslaganda uy interyeridagi tokchalar soni kam. Tokchalar miqdori bilan farqlasak Farg'ona va Toshkent uylarida xonalar to'rt devor bo'ylab tokchalar bo'lgan, Shahrisabzda uchta, Samarqandda ikkitadan, Buxoroda ikkitadan yoki bittadan, Xivada tokchalar bo'lmagan. Samarqand uyining ichki qismida ganchga o'ymakorlik, shift va devorlarni bo'yalgan. Uy tirik organizmga o'xshaydi, oilaning o'sishi bilan o'sib boradi va u erda ba'zi xonalar bekor qilinadi, boshqalari esa mukammalroq quriladi. Turar-joy turli vaqtlarda shakllangan kompleksdir.

Hozirgi vaqtda turizm industriyasi rivojlantirish, boy tariximiz va o'ziga xos arxitekturalarni dunyoga namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Shu imkoniyatdan unumli foydalangan holda "har bir oila tadbirkor" shioriga amal qilgan holda, xonadon egalari shaxsiy uylarini uy mehmonxonalariga aylantirishyapti. Afsuski bu sohaga ayniqsa arxitekturaviy nuqtai nazaridan an'anaviy uslubdagi uylarni o'z boshimchalik bilan bir-biridan tubdan farq qiladigan arxitekturaviy uslublar bilan uyg'unlashtirib an'anaviy uylar ko'rinishini



qo'pol holda boshqa yurt insonlariga taqdim qilishmoqda. Chet el fuqarolari bizning qadimiy obidalarimizni ko'rish uchun birga bizning qadimda turar joylar qanday bo'lganligiga qiziqishlari yuqori. Shu masalalarni hisobga olgan holda, arxitekturamizni namoyon etish. Bunday vazifani bajarishda uy mehmonxonalarini yanada rivojlantirib, turar joylarning o'ziga xosligini yuqotmasdan namoyon etish lozim. Chet el fuqarolari qadimiy Samarqand an'anaviy turar joylariga mehmon bo'lib muhit bilan tanishish imkoniyatini ta'minlash lozim.

Uy mehmonxonalarini egalari qadimiy Samarqand turar joylarini shakllantiraman deb mutanosiblikka ega bo'lmagan arxitekturaviy elementlarni qo'llashmoqda. Bunga misol kashtalardan dasturxon sifatida foydalanishlari. Qadimiy uylar derazalari o'rniga hozirgi zamonaviy plastik romlardan foydalanishyapti. Har bir hovlida ya'ni uy mehmonxonalarida ayvon, so'ri, tok, yashil maydonchasi bor, issiqda mo'tadil havoni ta'minlaydigan muhitni shakllantirib. Ananaviy hovli uylarimizni chet el fuqarolariga tanishtirish.


Yuqorida ta'kidlab o'tgan elementlarga xos uylar bor lekin bunday uylar mehmonxonaga sifatida ishlatishmaydi. Ananaviy uylarni qurish qayta gavdalantirish ancha mablag' va mehnad talab qiladi. Mehmant va resurslarni tejash maqsadida mavjud tyrar joylarni rekanstruksiya ishlarni amalga oshirib uy mehmonxonalariga aylantirish har tomonlama manfaotli bo'ladi.

Uy mehmonxonalarini hozirda rivojlanayotgan sohalardan biridir. Bunday mehmonxonalariga chet el fuqarolari qiziqishi yildan yilga ortiyapti. Samarqanddagi turar joy uylarini o'rganish, shu muhitda yashab kurish imkonini beradi. O'zimizning boy tariximizni chet davlatlarga ko'rsatish imkoniyatini yanada oshiradi, chet el fuqarolari oqimini oshirishga sabab bo'ladi.


Uy mehmonxonalarini yanada rivojlantirib nafaqat uylarni balki mahallalarni qaytadan tiklab, mahallaviy uy mehmonxonalarini takomillashtirib har bir uy egalari o'z uylaridan daromat olib keladigan sohaga aylantirish. Uy mehmonxonalarini arxitekturaviy nuqti nazaridan uyg'unlashtirilgan holda, tarixiy ahamiyatini yanada rivojlantirib zamonaviy texnologiyalar bilan taminash. Uy mehmonxonalar arxitekturasi durdonalarini marjonday terilgan holda taqdim etish.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bunday soxani rivojlantirish har tomonlama manfaatli ishlardan hisoblanadi. Tarixiy shahar qismida yashovchilar uchun daromad manbayi chet el fuqarolari uchun Samarqand turar joy uylari bilan tanishish imkoniyatini yatarib beradi. Ananaviy uy mehmonxonalarini arxitekturaviy nuqtai nazaridan ma'lum meyorlar ishlab chiqib tadbiq etish. Shu tariqa tarixiy muhitni saqlab qorish imkoniyati oshadi.






*1 rasm* Buxoro uy ko'rinishi



*2 rasm* Samarqand uy ko'rinishi



*2 rasm* Bibixonim ko'chasi 63 uy



*3 rasm* Bibixonim ko'chasi 63 uy

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Samarqand noma" M.Axmedov 2011.
2. "O'zbekiston me'morchiligida hovli ananalarining shakllanishi va rivojlanishi" D.Z.Salohiddinova 2018.
3. Internet ma'lumotlari.
4. "Narodnie traditsii arxitekturi Uzbekistana" V.A Varonina
5. Sindarovich, U. A., Dilnoza, Q., & Fayzullo o'g'li, B. A. (2023). National Traditions of Interior Architecture of Buildings of Wedding Houses. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(3), 1-7.

*Uralov, A., & Baxodirov, A. (2023). The History and Significance of the Construction of Hydrotechnical Constructions in Uzbekistan in the middle Ages (Example of Abdullakhan Bandi). Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd).*